

Yashil

IQTISODIYOT
TARAQQIYOT
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 3

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 796 sahifa.

E'lom qilishga 2024-yil 30-martda ruxsat etildi.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxanova Guinora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Uteyev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururasi boshqarma boshlig'i o'rinosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokururasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Экологические и альтернативные заполнители для бетона в условиях Узбекистана.....	10
Акрамов Хуснитдин Ахрарович, Тохиров Жалолиддин Очилович, Самадов Хомид Самандарович	
Investitsion marketingni rivojlantirish asosida mintaqqa investitsiya jozibadorligini oshirish	16
Ahmedov Alim Babaniyazovich	
O'zbekistonda yashil budjetlashtirish, energiya samaradorligi va issiqxona gazlari emissiyasi.....	22
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamanov Alisher	
Development of the Digital Economy as a Trigger of the Economic Growth of the New Uzbekistan.....	28
Luiza Sayfullovna Makhmutkhodjaeva, Umarova Shahnoza Akbarovna	
Oliy o'quv yurtlarida matematik statistikani o'qitishning xususiyatlari.....	34
Shamsiyev Damin Najmuddinovich, Aymatova Farida Xo'razovna	
Turizmda tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari	37
Mardonova Dilafruz Kosimovna	
Oziq-ovqat xavfsizligi ta'minoti: O'zbekistonda mayonez importini notarif tartibga solish va ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari.....	41
Muratova Shohista Nimatullayevna, Nomozov Azizbek Xayrulla o'g'li	
Mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qimmatli qog'ozlar bozorining o'rni va roli	46
Akramov Azamat Ramziddinovich	
Mamlakatning iqtisodiy va ekologik rivojlanishida elektromobil sanoatini rivojlantirishning ahamiyati	53
Iminov Mahmudjon Azimjon o'g'li	
Hududiy eksport salohiyatini oshirishning marketing strategiyasi.....	60
Jiyamuratov Rustam Nuridinovich	
Turistik kompaniyalar moliyaviy barqarorligini baholash usullarini takomillashtirish kompaniya moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim mezoni.....	65
Jo'rayev Behzod Nuraliyevich	
Iste'molchilarni xulq-atvori modellari asosida marketing strategiyalarini shakillantirish.....	70
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish	75
Mirzayeva Nargiza Batirovna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning o'rni.....	80
Otajonova Charosxon Polvonquli qizi	
Innovatsion menejment va raqamli transformatsiyalarni joriy etishning metodologik asoslari.....	84
Quldoshev Asliddin Tursunovich	
Strategik boshqaruvida xususiy kapital samaradorligini baholash.....	89
Nasriyeva Zebiniso A'zam kizi, Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
Mintaqalarni innovatsion rivojlantirish istiqbollari tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirishni boshqarish yo'llari	100
Xodjamuratova Gulbaxar Yuldashevna	
Meva-sabzavot eksporti barqarorligini ta'minlashning ekonometrik tahlili	105
Shamsiyeva Feruza Muratxodjayevna	
Zarubежный опыт активизации экономической активности домохозяйств.....	111
Бердиев Гайрат Ибрагимович, Маликова Севинч Телман кизи, Люсиков Артемий Александрович	
The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth: A Case Study of Uzbekistan.....	116
Abdulla Ibragimov, Keldiyorov Shakhriyor Ilyos O'g'li	



Mintaqada sanoat ishlab chiqarish rivojlanishining kambag'allikni qisqartirishdagi ahamiyati	121
Abdullayev Habibullo Asadulla o'g'li	
Global iqtisodiyot sharoitida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etishdagi muammolar va yechimlar.....	125
Abduvosidova Gulandom Abdurashid qizi	
Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasida biznes subyektlarini toifalarga ajratish amaliyotining xususiyatlari	131
Akobirova Nodira Najmiddin qizi	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlanish yo'llari.....	135
Axmedova Nafisa Amirkuddin qizi	
Strategic directions of integration of Uzbekistan into the international hospitality industry.....	140
Bekmurodova Laylo Tursunmamatovna	
Surxondaryo viloyatida parrandachilikni rivojlantirish ko'rsatkichlarini prognozlash va modellashtirish.....	144
Bobomuratov Imomqul Islamovich	
Mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati va uning tahlili.....	149
Talipova Dilfuza Nabiyevna	
Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	154
Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon o'g'li	
Analysis of the Influence of Macroeconomic Indicators on State Budget Tax Revenue	158
Meyliev O. R., Gofurova K.	
Mahalliy budjet xarajatlarini hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	166
Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li	
Influence of Digital Technologies on Economic Growth of the Republic of Uzbekistan.....	170
Igamberdiyeva Kunduz Ergashevna	
Transmilliy kompaniyalarning tashqi bozorlar uchun marketing strategiyalari va marketing tadqiqotlarini o'tkazish amaliyoti	174
Jo'rayeva Zilola Turobovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi	
Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashni rivojlantirish imkoniyatlari.....	178
Kamilova Iroda Xusniddinovna	
Korxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruvi tizimini takomillashtirish	183
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
Tijorat banklari faoliyatida onlayn tizimlarining tutgan o'rni va ularning rivojlanishi.....	188
Raxmataliyev Muzaffar Eshdavlatovich	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyatining ta'sirini baholashning nazariy asoslari	194
Fayziyeva Dilsuz Bahodirovna	
O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish samaradorligini oshirish.....	200
Mirzayev Bexruz Abdulla o'g'li	
Andijon viloyatida kambag'allik darajasini qisqarishiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar	214
Musaeva Ziyoda Allayarovna	
O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi eksportida marketing muammolari	218
Musyeva Shoira Azimovna, Agzamov Avazxon Talgatovich	
Respublikamizda parranda bosh sonining hozirgi holati va uning istiqbollari.....	223
Akramova Nargiza Axrорovna	
Menejmentda ishbilarmonlik kommunikatsiyalaridan foydalanishda optimal strategiyalarini qo'llash shart-sharoitlari.....	227
Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi	
Raqamlashtirish sharoitida innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari	231
Nazarova Latofat Toirjon qizi	
O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	235
Nurmuxammedov Matlab Yunusovich	



Davlat aktivlarini samarali boshqarish hamda nazorat qilishni takomillashtirish.....	240
Mirzayev O., Nazarov G'ayrat Olim o'g'li	
Talabalarning oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	246
O. U. Shomurodov, Z. U. Uroqov, A. T. Ablahatov, A. A. Suyarov, J. S. Urazov	
Methodological Aspects for Branding in Private Schools.....	251
Odilova Sitora Sayfitdin qizi	
Совершенствование процедуры оценки эффективности и результативности расходов государственного сектора.....	256
Олимов Элёр Фазлиддин угли, Искандаров Суннатилло Баҳриддин угли	
Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda blokcheyn texnologiyalardan foydalanish	261
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Markaziy Osiyoda energetika bozorini rivojlantirishning kelgusi istiqboli va imkoniyatlari.....	267
Saidov Mash'al Samadovich, Umarova Irodaxon Nuraliyevna	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda sug'urta bozorining innovatsion usullaridan foydalanishning konseptual asoslari	275
Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi	
Oliy ta'lilda boshqaruvin strategiyalari va ularni amalga oshirish mexanizmi.....	279
Saidqulova Firuza Farmonovna	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadlarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari	283
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
O'zbekiston Respublikasidagi mavjud suv resurslarining iqtisodiy holati tahlili	288
Shanazarova Gulyora Baxtiyarovna	
Tijorat banklari kredit risklarini kamaytirish yo'llari.....	294
Tulkinova Maftuna Anvarbek qizi	
The use of Intellectual Systems in the Improvement of the Educational Process Management System in Higher Educational Institutions	303
Umarova Dilfuza Rakhmatilla qizi	
Oliy ta'lim tizimida yangi iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish.....	307
Xakimov Dilshodjon Rahmonaliyevich	
Global iqtisodiy sharoitida moliyaviy hisobotlar auditida muhimlilikni baholashni xalqaro stanadartlar asosida takomillashtirish.....	311
Xasanova Nasiba Tolliboy qizi	
Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni tashkil etish istiqbollari.....	314
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Oliy ta'lim muassasalarida gibrildi bulut xizmat modelini qo'llash mexanizmini ishlab chiqish	319
Zaripov Bahodir Bobomurod o'g'li	
Роль инвестиций в системе железнодорожного транспорта в Республике Узбекистан	325
Акбарова Лайло Упашевна	
Gidrotexnik inshootlar betonlarini samaradorligini tahlil qilish va oshirish natijalari	330
Asqarov B. A., Karimov M. U., Xolmirzayev S.T., Obidjonov J. T.	
Maxsus iqtisodiy zonalar hududiga jalb etilgan investitsiyalar to'g'risida	334
Davlayev G'olib Ashurovich	
Yangi xizmat turi xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishning metodologiyasi	337
Djurayeva Dilnoza Davron qizi	
Mintaqalar innovatsion salohiyatini baholashning uslubiy yondashuvlari.....	343
J. A. Ismatullayev, D. X. O'rino	
Milliy qayta sug'urtalovchilarning xalqaro sug'urta bozoriga kirib borishi va kutilayotgan xavf-xatarlar	348
Jorabayev Jasur Abduraxmanovich	



Moliyavi hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditni natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirish tartibi	354
Ibragimov M. M., Ergashev O. F.	
Turistik destinatsiyalarni tashkil etish va rivojlantirishning xorijiy tajribalari	358
Karimov Anvar Aktam o'g'li	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	362
Qurbanov Muxiddin Abdullayevich	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional tizimini tadqiq etishga uslubiy yondashuvlar.....	367
Mamatov Axmetjon Atajanovich, Allaberganov Zakir Gayibovich	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari	373
Mamatov Mamajan Axmadijonovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlari eksport faoliyatini rivojlantirishning xorij tajribasi.....	380
Mansurov Saidxo'ja Kamalovich	
Korxonalar raqobatbardoshligini oshirish muammolari va dolzarb vazifalari	386
Musyeva Shoira Azimovna	
Устойчивый и инклюзивный рост: взаимосвязь экономического прогресса с социальным равенством и экологическим управлением	390
Нодирбек Холбаев	
Mintaqalarni investitsion jozibadorligini taraqqiyot strategiyasiga ta'sirini statistik baholash.....	396
Nuriddinov Zufar Akbarovich	
Финансирование каракулеводства: преодоление финансовых вызовов в пустынных регионах Узбекистана	402
Нуриллаев Жамолиддин Ярашевич	
O'zbekiston investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish.....	408
Oybek Elmuratov	
Intellektual mulkning iqtisodiy mazmuni va tarixiy rivojlanish bosqichlari.....	411
Maxmudova Nargiza Davlyat qizi	
Implementation and use of Digital Technologies in Logistics Abstract.....	416
Kushakova Mamura, Koshakova Mukhlisa Surat qizi	
Innovatsion iqtisodiyot tushunchasining mazmun mohiyati	421
Abduqaxorov Bekzod O'tkir o'g'li	
Raqamlashtirish iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshligini oshirish omili sifatida.....	426
Mamajonova Durdonahon Mamaruzi qizi	
O'zbekistonda tashqi savdoni notarif usullar orqali tartibga solishning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri.....	431
Norqobilov Akobir Iso o'g'li	
Инновационные методы переработки горных отходов для экологической устойчивости в Узбекистане	437
Аскаров Бахтиер Аскарович, Собирова Мукаддас Хамидуллаева	
Опыт зарубежных стран по стимулированию производства сельскохозяйственной продукции и перспективы внедрения в Узбекистан.....	442
Холиков Сулаймон Уткир угли	
Xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruvi hisobini tashkil qilishning uslubiy jihatlari.....	447
Pardayeva Shahnoza Abdinabiyeva	
O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini molijalashtirishni statistik tahlili.....	452
Sayfullayev Siddik Nosirovich	
Sug'urta tashkilotining innovatsion risklarini baholash.....	457
Sattorov Shoxrux Maxmudjon o'g'li	



Kapital bozori rivojlanishining zamonaviy tendensiyalari	462
Turdiyeva Uzayda Omirbayevna	
Aadaptivnyi iisкусstvennyi intellekt v upravlenii chelovecheskimi resursami.....	469
Хайдарова Малика Шоқирджановна	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanishga xizmat qiluvchi zamonaviy va istiqbolga mo'ljalangan huquqiy asoslarning yaratilganligi to'g'risida.....	478
Xayriddinov Shuxrat Botirovich	
Investitsiya loyihalariiga ta'sir qiluvchi risklarni sifat jihatdan baholash usullarining o'ziga xos xususiyatlari	482
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni kreditlash tartib va ularni takomillashtirish yo'llari	491
Yunusova Ozoda Anvarjon qizi	
Hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda soliq salohiyatini oshirishning nazariy jihatlari	498
E. N. Raximov	
Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzishning zarurligi.....	504
Avazov Ilhom Ravshanovich	
Inson resurslarini boshqarishning innovatsion usullarini joriy etish vositalarini ishlab chiqish.....	509
Djuraeva Guzal Shavkatovna	
Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	513
Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon o'g'li	
Korporativ qimmatli qog'ozlar asosida korxonalarни moliyalashtirishning ilg'or xorij tajribalari.....	517
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
The impact of corporate governance on firm performance and financial stability	524
Muhammadyor Yunusov	
Mintaqalarda kamg'allik darajasini pasaytirish va xorij tajribasidan foydalanish yo'llari.....	537
Musulmonova Shahlo Nasriddinovna	
Makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash soliq ma'muriyatçiligin samarali tashkil etish yo'llari	541
Mutalova Dilorom Maxamadjanovna, Kenjaboyeva Nigina	
Iqtisodiy savodxonlik hamda tadbirkorlik qobiliyati o'rtasidagi to'g'ri nisbatdagi bog'liqlik munosabatining fundamental asoslari.....	544
Tuxtayeva Muyassar Shovkat qizi	
Korxonalarning bankrotlik riskini baholashning xalqaro modellari.....	550
Umarova Hulkar Umidulloevna	
O'zbekistonda korxona boshqaruvida kadrlar salohiyatidan foydalanish amaliyotini rivojlantirishning xorij tajribasi	555
Do'stova Aziza Qahramonovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida boshqaruv tizimining xususiyatlari.....	559
Iroda Majidova	
Ziyorat turizmini rivojlantirishning muhim xususiyatlari	565
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Shukurov Tohirjon Izzatullo o'g'li	
Qandolat mahsulotlari bozorida marketing tadqiqotlarini asosiy yo'nalishlari	569
Tuychiyeva Vasila Faxriddin qizi	
"Зелёная экономика" как фактор повышения экономического роста страны.....	573
Тураева Адиба Икрамовна	
Oilada sarf-xarajatlar samarasiga erishishning muhimligi.....	580
Xasanov Rustam Rabimovich	
Aholi farovonlik darajasidagi farqlarni tartiblash yo'nalishlari.....	583
Xasanov Rustam Rabimovich, Turdiyev Zoxidjon Rustamovich	



Совершенствование оценки стоимости объектов недвижимости в Узбекистане на основе зарубежного опыта.....	588
Хомитов К. З., Халилова Л. Ш.	
Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishda xorij tajribalaridan foydalanishning ahamiyati.....	594
Choriyeva Nigina Kaxramonovna	
Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish yo'llari	598
Alimbayeva Sevara Alimbayeva	
Yengil sanoatni rivojlanishida Germaniya tajribasi.....	601
F. Jumaniyazova, G'ułomov Ibroxim Rustam o'g'li	
The efficiency of usage of Islamic finance instruments in security market.....	607
Khasanov Umarbek Begmat ugli	
Tadbirkorlik subyektlari eksportini rivojlantirishda raqamli platformalardan foydalanishning xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish yo'llari.....	613
Mamasoatoev Dilshod Ravshanovich	
O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil qilinishining hozirgi holati va muammolari	621
Nutfulloev Tolib G'olib o'g'li	
Mehnat bozorida raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini takomillashtirish	627
Maxammadiyev M. M.	
Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish sharoitida mahsulot tannarxini optimallashtirish asoslari.....	632
Narzullayeva Gulchehra Salimovna	
Elektron pullarni rivojlanirish yo'llari	636
Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Egamberganov Mirzabek Odilbek o'g'li	
Zagryaznenie okruжающей среды в Узбекистане: проблемы, причины и пути решения	644
Ишонкулова Феруза Асатовна, Шукров Тимур Умидович	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarini transformatsiyalash modeli orqali takomillashtirish	649
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevna	
Land Tax Received From Individuals and its Share in the Budget of the Republic of Uzbekistan	656
Hakimov Feruz Khurshid ugli	
O'zbekistonda "yashil" iqtisodiyot va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xarajatlar tahlili.....	659
Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi, Sharapova Mashxura Azadovna	
Qurilish xizmatlari ma'lumotlar tizimini takomillashtirish imkoniyatlari	665
Nurfayziyev Zayniddin Boymurodovich, Nurfayziyev Elyor Zayniddinovich	
Ipotekali kreditlashni rivojlanirishning xorijiy davlatlar tajribasi va uni O'zbekistonda tatbiq etish yo'llari	670
Turdiev Shaxriddin Erxonovich	
Suv resurslaridan foydalanishda xorij tajribalari	675
Berdiyev Anvar Abdivaliyevich	
Auditda yetarli va mos dalillarni to'plash tartibi	681
Meliyev Isroil Ismoilovich	
"Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi	686
Urumbayev Saparbek Samatovich	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari	692
Xolmuradov Raxmatilla Ne'matillaevich	
O'zbekiston mahsulotlarining tashqi bozordagi raqobatbardoshligi xususiyatlari va onlayn platformalar	699
Baymuradov Shoxrux Maxmudovich	
Factors affecting investment attractiveness in the global investment landscape.....	704
Otaboev Akhmed Makhsubbek o'g'li, Juliana Juliana, Fazliddin Nasreddinov	



Xalqaro migrantsiyaning O'zbekiston mehnat bozori va inson kapitaliga ta'siri.....	709
Tilabova Kumush Farhod qizi	
ANALIZ I OZENKA EESTSTVENNOGO OSVEЩENIJA POMEЩENIIJ OBRAZOVATEL'NYX UCHREЖDENIJ.....	714
Pirmuhamedova Shaxniza	
Aktyualnye voprosy ukrpleniya doveriya naselenija k bankovskoj sisteme Respubliki Uzbekistan....	719
Ruziboeva Nilufar Tulkin kizi	
Metodicheskie podkhody k formirovaniyu mechanizmov strategicheskogo upravleniya razvitiem khimicheskoy otрасli.....	725
Bibutova Shaхlo Sa'ydullaeva	
Iqtisodiyotni rivojlantirishda erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishning afzalliklari va muammolari	730
Axmedova Dilbar Buronovna	
Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirishda sog'lijni saqlash muassasalarini moliyalashtirishning mohiyati.....	734
Ishmanova Diana Nurmamadovna	
Oziq-ovqat sanoatini tashkiliy-iqtisodiy jihatdan rivojlanti-rishning nazariy asoslari	737
Muxtorova Madina Azamat qizi	
Ipoteka kreditlari sohasidagi islohotlar va kelajakdagi istiqbollar	741
A'zamxo'jayeva Nihola Sulaymon qizi	
Sanoat ishlab chiqarish tizimining investitsion xususiyatlari	746
Yodgorova Xalima To'lqinovna	
Budjet ijrosini samarali ta'minlashda davlat xaridlarining ahamiyati.....	752
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Fayzullayeva Zilola Ravshanovna	
Aholi sog'ligi – milliy boylikning tarkibi va jamiat taraqqiyotining muhim shartidir.....	763
Djumabayeva Shaira Xalillayevna	
Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari: hisob siyosati.....	769
Rizayev Nurbek Kodirovich, Mamatova Charos Shavkiddinovna	
Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsion muhitning o'rni	778
Valiyeva Sayyora Xushbaqovna	
Davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ ijtimoiy mas'uliyat ("Rossiya temir yo'llari" OAJ misolida).....	784
Xidirova Marg'uba Rustamovna, Saidqulov Avazbek Botirqul o'g'li	
Raqamli transformatsiyaning O'zbekistonning investitsion jozibadorligiga ta'siri	790
Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Markabayeva Jansaya Aybek qizi	



XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISHNING USLUBIY JIHATLARI

ORCID: 0000-0002-0654-8152

Pardayeva Shahnoza Abdinabiyevna

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Bank hisobi va audit" kafedrasi dotsenti



Annotatsiya: Mazkur maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilishning uslubiy jihatlari yoritib berilgan. Shuningdek, strategik boshqaruv hisobining an'anaviy boshqaruv hisobidan asosiy farqli tomonlari, xo'jalik yurituvchi subyektda strategik va boshqaruv hisoblari ko'lami bayon qilingan hamda ular bo'yicha tegishli xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: xo'jalik yurituvchi subyekt, strategik boshqaruv hisobi, boshqaruv hisobi, moliyaviy hisob, moliyaviy natija, makromuhit.

Abstract: This article describes the methodological aspects of organizing strategic management accounting in business entities. Also, the main differences of strategic management accounting from traditional management accounting, the scope of strategic and management accounting in a business entity are described and relevant conclusions and proposals are given.

Key words: business entities, strategic management accounting, management accounting, financial account, financial result, macro environment.

Аннотация: В данной статье описаны методологические аспекты организации стратегического управленаческого учета в хозяйственных субъектах. Также описаны основные отличия стратегического управленаческого учета от традиционного управленаческого учета, сфера применения стратегического и управленаческого учета в хозяйствующем субъекте, а также даны соответствующие выводы и предложения.

Ключевые слова: хозяйствующие субъекты, стратегический управленаческий учет, управленаческий учет, финансовый учет, финансовый результат, макросреда.

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, xo'jalik yurituvchi subyektlar ishlab chiqarayotgan mahsulotlarini eksport qilish ko'lamini kengaytirish bo'yicha qo'yilayotgan vazifalar ijrosini samarali tarzda tashkil qilingan strategik boshqaruv hisobi tizimisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Bozor munosabatlari rivojlanishining hozirgi bosqichi mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisob amaliyotida strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritishning dolzarbigini yanada oshirmoqda.

Shu munosabat bilan hozirgi paytda muhim e'tibor mamlakatimiz amaliyotida nisbatan yaqinda paydo bo'lgan, ammo rivojlangan bozor munosabatlari ega davlatlarda yetarlicha keng yo'nalishda shakllanib, bugungi kunda o'zining rivojlanish hamda tobora takomillashish bosqichida bo'lgan strategik boshqaruv hisobiga qaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yuqorida qayd qilib o'tilganidek, mamlakatimizda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish masalasi hozirgacha e'tibordan chetda qolib kelmoqda, uni tashkil qilish va yuritish bilan bog'liq bo'lgan nafaqat amaliy, balkim juda ko'p nazariy masalalar ham o'zining ijobiy yechimini topgani yo'q. Holbuki, xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish masalalariga MDH mamlakatlarida ham hozirgacha yetarlicha e'tibor qaratilayotgani yo'q. Masalan, shu sohada sermahsul ilmiy faoliyat olib borayotgan Rossiyalik iqtisodchi olim V.E.Kerimov: "Milliy o'quv va ilmiy adabiyotlarimizda strategik boshqaruv hisobi bo'yicha chop etilgan ishlar deyarlik yo'q hisob" [1], deb qayd qiladi.



Deyarlik shunday fikr-mulohazalarni N.M.Blajenkova ham alohida ta'kidlab, korxonalar amaliyotida strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish masalalari endi kun tartibiga chiqayotganligi, shu munosabat bilan amaliyotda uning mohiyatiga yetarlicha e'tibor berilmayotganligi, aksariyat holatlarda esa uni an'anaviy tarzda boshqaruv hisobining bir qismi sifatida qaralayotganligini ko'rsatib beradi [2].

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda strategik boshqaruv hisobi o'zining shakllanish jarayonida bo'lib, shunga muvofiq uni tashkil qilishning nafaqat amaliy tomonlari, balkim qator nazariy va uslubiy masalalari ham o'zining ijobji yechimini kutmoqda. Oddiyroq tarzda ifoda qilinadigan bo'lsa, ushbu yo'nalishdagi mavjud muammolar yechimiga qaratilgan tadqiqotlar soni hozirgacha juda kamdir.

Strategik boshqaruv hisobi bozor iqtisodi rivojlangan mamlakatlar kompaniyalari amaliyotida strategik menejment va hisob-tahsil amaliyoti bazasida shakllangan va rivojlanib kelmoqda. Shunga muvofiq, xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritishni strategik boshqaruvning quyidagi muhim tamoyillari asosida amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- strategiyani ko'ra bilish va ishlab chiqishning ilmiy-tahsilili tamoyili. Bu tamoyil shuni ko'rsatadiki, samarali strategiyani ishlab chiqish uchun xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati xohish-istagini o'zi kamlik qiladi. Ana shu strategiyani amalga oshirishdan oldin unga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha omil, ko'rsatkich va resurslarning o'tgan davrdagi holati, tarmoqdagi holatning hozirgi ahvoli va rivojlanish dinamikasi kompleks tahlil qilinishi kerak bo'ladi;
- xo'jalik yurituvchi subyekt rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi barcha ichki va tashqi omillarni hisobga olish tamoyili. Bu tamoyilning mohiyati shundan iboratki, strategik qarorlar ichki va tashqi omillarni hisobga olib qabul qilinsagina samarali bo'lishi mumkin;
- xo'jalik yurituvchi subyektni boshqarish strategiyasi va taktikasining uyg'unligi, ya'ni ularning bir-biriga muvofiq kelishi tamoyili. Bu tamoyil har tomonlama puxta ishlab chiqilgan strategiyani amalga oshirishning samarali taktikasi bo'lishini talab qiladi. Oddiyroq ifoda qilinadigan bo'lsa, xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan amalga oshirilayotgan taktika strategiyaga mos kelishi, ya'ni har qanday strategiya muhim taktik masalalarni bajarish orqali amalga oshirilishi natijasida muvaffaqiyatlarga erishishi mumkin bo'ladi;
- inson omili ustuvorligi tamoyili. Strategiya va taktika shunday ishlab chiqilishi kerakki, xo'jalik yurituvchi subyektning mehnat jamoasi, ya'ni ishchi va mutaxassislar uni o'zlariga dasturiy amal sifatida qabul qilishi va amalga oshirishi mumkin bo'lsin. Buning uchun ishchi-xodim va mutaxassislarning strategiya mohiyatini tushunishi, uni amalga oshirish taktikalarini chuqur his qilishi va shu boradagi vazifalarni bajarish uchun bilim darajasi hamda ko'nikmasi yetarli bo'lishi kerak;
- strategiya aniqligi va uning strategik boshqaruv hisobi hamda nazorati tamoyili. Bu tamoyil strategik vazifalar aniq bo'lishini talab qiladi, ya'ni qo'yilayotgan vazifalar aniq ifodalanishi va ularni bajarish mexanizmi ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Bu boradagi muhim omil – shu tamoyil muqarrar tarzda teskarilaloqa bo'lishni ham taqzoza qiladi. Bu vazifani esa samarali tarzda tashkil qilingan strategik boshqaruv hisobi hamda nazoratisiz amalga oshirib bo'lmaydi;
- strategiyaning mavjud resurslar bilan muvofiq kelishi tamoyili. Belgilangan strategiyani amalga oshirish uchun qo'yilayotgan vazifalarning resurs ta'minoti masalasi faoliyat boshidan o'zining ijobji yechimini topgan bo'lishi kerak. Bu tamoyilni xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilib, samarali tarzda yuritish orqali amalga oshirish mumkin bo'ladi;
- strategiyaning mavjud texnologiyalarga mos kelishi tamoyili [3].

Strategik boshqaruvning yuqorida sanab o'tilgan ana shu tamoyillarini xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini tashkil qilmasdan amalga oshirib bo'lmaydi.

Strategik boshqaruv hisobining mohiyati xo'jalik yurituvchi subyekt rahbarlarini strategik boshqaruv qarorlari qabul qilishi uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlar bilan tezkor va tizimli tartibda ta'minlash orqali ifodalandi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, ko'rniib turibdiki, strategik boshqaruv hisobi hisob tizimidagi mutlaqo yangi yo'nalish emas, balkim boshqaruv hisobining kelajakka yo'naltirilgan takomillashgan modeli, deb ham hisoblash mumkin.

Xorijlik olimlarning (Thomson & Strickland, Ward, Drury, Scarlett & Wilks) qarashlarini o'rganish, strategik boshqaruv hisobi bajarishi kerak bo'lgan uning quyidagi uchta funksiyasini alohida ajratib ko'rsatish bo'yicha yaxlit xulosani chiqarish imkonini beradi:

- strategik boshqaruv hisobi strategik boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun xizmat qiladigan tizim;
- strategik boshqaruv hisobi xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati va mutaxassislarini ma'lumotlar bilan ta'minlaydi;



- strategik boshqaruv hisobi xo'jalik yurituvchi subyekt rahbariyati talabiga amaldagi ma'lumot olish usullari mos kelmay qolganda ma'lumot taqdim qilish yo'llarini o'zgartirishga imkon beradigan o'ziga xos texnologiyadir.

Strategik boshqaruv hisobi biron bir davlat organi tomonidan tartibga solinmaydi. Shuning uchun uni tashkil qilish shakllari va yuritish usullarini har bir xo'jalik yurituvchi subyekt mustaqil tarzda, o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlar ko'lami hamda imkoniyati darajasidagi resurslar miqdoridan kelib chiqqan holda belgilaydi. Shu sababli strategik boshqaruv hisobining samarasи xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan uni tashkil qilish masalalariga qay darajada e'tibor qaratilganligi bilan belgilanadi.

Oddiyroq tarzda ifoda qilinadigan bo'lsa – xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan strategik maqsad aniq belgilanib, uni amalga oshirish borasidagi vazifalar tizimli tarzda shakllantirilgan bo'lsa, strategik boshqaruv hisobi missiyasi va uning vazifalari ham shunchalik oydin bo'ladi.

Strategik boshqaruv hisobining modeli ishlab chiqilayotgan vaqtida alohida e'tibor nafaqat moliyaviy va nomoliyaviy ko'satkichlarni yig'ish, tahlil qilish va taqdim etish jarayoniga, shu bilan birga makro va mikromuhit ko'satkichlarining istiqbolda o'zgarishlarini prognozlashtirish va ana shunday o'zgarishlarga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan omillarni oldindan hisobga olish kabi vazifalarni bajarishiga ham qaratilishi kerak.

Bizning fikrimizcha, xo'jalik yurituvchi subyektda tashkil qilinayotgan strategik boshqaruv hisobi modeli quyidagi muhim vositalar bazasida shakllangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

- o'zarobog'langan va muvofiqlashtirilgan moliyaviy va nomoliyaviy ko'satkichlar tizimini shakllantirish;
- qo'shilgan qiymat yaratish va uning hajmini oshirib borish dinamikasini ta'minlash tamoyiliga qat'iy tarzda amal qilish;
- investitsiya va xorijiy sarmoyalarni keng jalg qilish;
- yuqori texnologiya va yuqori malakali mutaxassis-kadrlar jamoasini shakllantirish va uning salohiyatini uzluksiz tarzda oshirib borish choralarini ko'rish^[4].

Shuningdek, strategik boshqaruv hisobi samaradorligini oshirish va modelning ishlash jarayonida og'ishlar oldini olish maqsadida tizimda ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va taqdim etish holatini vaqt-vaqt bilan ichki auditdan o'tkazib turish ham kerak bo'ladi.

Yuqorida qayd qilingan mulohaza va mushohadalar strategik boshqaruv hisobining an'anaviy tarzda xo'jalik yurituvchi subyektlar amaliyotidagi boshqaruv hisobidan quyidagi farq qiladigan jihatlarini ajratib ko'rsatish imkoniyatini beradi (1-jadval).

1-jadval: Strategik boshqaruv hisobining an'anaviy boshqaruv hisobidan asosiy farqli tomonlari¹

Taqqoslash me'zonlari	Boshqaruv hisobi	Strategik boshqaruv hisobi
Vazifasi bo'yicha	Minimal xarajatlarni orqali maksimal foyda olishni ta'minlash	Uzoq muddatga subyekt faoliyati samaradorligini ta'minlash, foydani oshirish va xo'jalik yurituvchi subyektning investitsion jozibadorligini oshirish.
Makromuhit omillari ta'sirini hisobga olish, tahlil qilish va nazoratga olish	Tahlil qilinmaydi va nazoratga olinmaydi yoki muntazam tarzda amalga oshirilmaydi	Makromuhit omillari – bozor holati, raqobat va raqobatchilarning xarajatlari o'zgarishi muhim diqqat markazida bo'ladi, subyekt strategiyasiga ta'sirining tahlili va uning uzluksiz monitoringi olib boriladi.
Nomoliyaviy ko'rsatkichlar tahlili va nazorati	Amalga oshirilmaydi	Nomoliyaviy ko'rsatkichlar tizimi shakllantiriladi, hisobga olinadi, o'zgarishi muntazam tarzda baholanadi va monitoringi olib boriladi.
Xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilish	Xarajatlarni hisobga olish va boshqarishda ishlab chiqarish hajmi asosiy omil sifatida hisobga olinadi	Xarajatlarni hisobga olish va tahlil qilishda ishlab chiqarish hajmi yagona va muhim omil sifatida qaralmaydi.
Rejalashtirish	Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati ko'rsatkichlari qisqa va joriy muddatlarga rejalashtiriladi	Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati uzoq va strategik muddatlarga rejalashtiriladi.
Rejalashtirish va budjetlashtirish miqyosi	Mikro darajada	Makro darajada.

¹ Muallif tomonidan tuzilgan.



Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlaridan ham ko'riniб turibdiki, strategik boshqaruv hisobi mohiyati va bajaradigan vazifalari an'anaviy tarzda shakllangan va amaliyotda qo'llanilib kelinayotgan boshqaruv hisobi tizimidan farq qiladi. Uning shunday farqlarini belgilab beruvchi yana quyidagi tomonlarini ham ajratib ko'rsatish mumkin:

- bajaradigan vazifalarining ko'lamiga qarab;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va taqdim etish usullariga qarab;
- qabul qilinayotgan qarorlar ko'lami va ularning belgilanishiga qarab. Umumiy tarzda strategik boshqaruv hisobi va boshqaruv hisobining ko'lamini, maqsadi, obyekti va predmetlarini quyidagi rasmdagi tasvir ko'rinishida ifodalash mumkin (1-rasm).

Хўжалик юритувчи субъект фаолияти

Макромуҳим

Микромуҳим

Бошқарув хисоби кўлами:

1. Ишлаб чиқариш жараёни.
2. Иқтисодий омиллар.
3. Техник-ташкилий тадбирлар.
4. Таркибий бўлинмалар фаолияти.
5. Мехнат ресурсларидан самарали фойдаланиш ва

I. Молиявий кўрсаткичлар

1. Ҳалқаро сиёсий ва иқтисодий омиллар.
2. Миллий-иктисодий.
3. Моддий, меҳнат ва молиявий ресурслар.

II. Номолиявий кўрсаткичлар

1. Инновацион фаоллик даражаси.
2. Инвестицион фаоллик даражаси.
3. Мутахассисларнинг интеллектуал

Стратегия адаптацияси (мослашиши)

Муваффақият (самара) даражаси

1-rasm: Xo'jalik yurituvchi subyektda strategik va boshqaruv hisoblari ko'lami²

1-rasm ma'lumotlaridan ko'riniб turibdiki, strategik boshqaruv hisobi axborotlarni yig'ish, tahlil qilish va uzatishda o'ziga xos usullar va yondoshuvlardan foydalanadigan mustaqil hamda istiqbolli hisob tizimidir. Shu bilan bir qatorda strategik boshqaruv hisobi xo'jalik yurituvchi subyektning ichki muhit omillari va ko'rsatkichlari to'g'risida axborotlarni shakllantiradigan moliyaviy, soliq, boshqaruv, statistik, operativ hisob ma'lumotlaridan ham keng foydalanadi [5].

Makromuhit ko'rsatkichlari va omillari to'g'risidagi ma'lumotlar asosan xo'jalik yurituvchi subyektlarning menejment tizimida shakllanadi va u, shubhasiz, strategik boshqaruv hisobi hisob-tahlil tizimining ajralmas bir qismi sifatida hisobga olinadi. Shunday bog'liqlikda shakllangan axborotlar bazasi teskari aloqa vositasini ham bajaradi, ya'ni yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ham ko'riniб turibdiki, xo'jalik yurituvchi subyekt tomonidan nazorat qilinayotgan ichki (mikromuhit) ko'rsatkichlar va omillarni tashqi (makromuhit) omillar ta'siriga moslash-tirish imkoniyatini yaratadi. Bu holat strategiyaning yangi sharoitga adaptatsiya qilinishini ta'minlaydi.

² Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot ishini o'rganish va tahlil qilish davomida quyidagi xulosa va takliflar shakllantirildi:

1. Belgilangan strategik maqsadlarga erishish uchun u tomon olib boruvchi yo'llarni aniqlash, uni tahlil qilish, oqilona foydalanish, resurslardan samarali foydalanish strategik boshqaruv hisobining asosiy vazifasi hisoblanadi.
2. Mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, har bir xo'jalik yurituvchi subyektlarda strategik boshqaruv hisobini samarali tashkil qilish va uni yuritish uchun barcha imkoniyatlar yaratilishi shart.
3. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy natijalarning strategik boshqaruv hisobini tashkil qilish va yuritish maqsadida moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda nomoliyaviy ko'rsatkichlar majmuasidan ham foydalanish kerak.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Керимов В.Э. Стратегический учет. Учебное пособие / В.Э. Керимов – М.: Омега-Л, 2005. 168 с.
2. Хахонова И.И., Хахонова Н.Н. Система стратегического учета: формирование и развитие. //Фундаментальные исследования. – 2013. – № 6-3. – С. 720-724.
3. Pardayeva Sh.A. Xo'jalik subyektlarida moliyaviy natijalarning strategik boshqaruv hisobini takomillashtirish. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy-elektron jurnal. www.interfinance.uz, №3, 2021-yil, iyun.
4. Pardayeva Sh.A. Xarajatlarning strategik boshqaruv hisobini samarali tashkil qilish yo'nalishlari. "Iqtisodiyot va ta'lif" ilmiy jurnal, 2022-yil 2-son 141-145 betlar.
5. Pardayeva Sh.A. Strategik boshqaruv hisobida ko'rsatkichlar tizimi. "Iqtisodiyot va ta'lif" ilmiy jurnal, 2023-yil 2-son. 227-232 betlar.

Yashi

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

